

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA MAS'ULIYAT TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Azimova Farangiz Baxtiyarovna

Osiyo Xalqaro Universiteti magistr 1- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishning innovatsion pedagogik usullari yoritilgan. Zamonaviy ta'limda o'quvchining shaxsiy faolligi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy mas'uliyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, loyihaviy ta'lim hamda reflektiv yondashuvlar orqali mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mas'uliyat, innovatsion ta'lim, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, shaxsiy rivojlanish, loyihaviy ta'lim.

KIRISH

Mas'uliyat tuyg'usi — bu insonning o'z xatti-harakati, qarorlari va bajarayotgan vazifalari uchun javobgarlikni ongli ravishda his qilishi hamda natijasi uchun mas'ul ekanini anglab yetishidir. Bunda shaxs o'z majburiyatlarini bajarishga jiddiy yondashadi, o'z so'zida turadi, vaqtni qadrlaydi va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga intiladi. Mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lgan inson xatolarini tan oladi, ularni tuzatishga harakat qiladi va o'z qarorlarining oqibatini tushunib harakat qiladi. Ta'lim jarayonida mas'uliyat tuyg'usi o'quvchining darslarga munosabati, mustaqil ishlashi, o'zini nazorat qila bilishi va jamoa oldidagi burchini anglashida namoyon bo'ladi. Psixologik jihatdan mas'uliyat tuyg'usi shaxsning yetukligi, ijtimoiy ongli bo'lishi va o'zini boshqarish qobiliyatining muhim ko'rsatkichi bo'lib, u tarbiya, ta'lim va ijtimoiy muhit ta'sirida bosqichma-bosqich shakllanadi.

«Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta AQSHda XX asrda madaniyatshunos olimlar tomonidan aniqlangan va paydo bo'lgan. Ularning fikricha, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Uning bu ma'nosi etnografivada hozirgacha saqlanib qolgan. Innovatsion pedagogik muammolar yechimini izlash ta'lim sohasida innovatsion jarayonning xususiyati, mazmuni, tarkibini tasniflash va tekshirish natijalarini tahlil qilish bilan amalga oshiriladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchining nafaqat bilim olishi, balki ijtimoiy va shaxsiy mas'uliyatni his qiluvchi yetuk shaxs sifatida shakllanishi dolzarb masala hisoblanadi. Mas'uliyat tuyg'usi o'quvchining o'z vazifalariga jiddiy yondashishi, mustaqil qaror qabul qilishi va jamiyatda faol ishtirok etishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ta'lim jarayonida innovatsion usullardan foydalanish orqali mas'uliyatni rivojlantirish samarali natija beradi.

1. Loyihaviy ta'lim (Project-based learning)

Loyihaviy ta'lim o'quvchilarga muammo yechimini topish jarayonida mustaqil ishlash, vaqtni rejalashtirish va jamoa oldidagi mas'uliyatni his qilish imkonini beradi. Har bir o'quvchi loyiha ichida o'z vazifasiga javobgar bo'ladi.

2. Raqamli texnologiyalar orqali mas'uliyatni shakllantirish

Google Classroom, Moodle, Edmodo kabi platformalar orqali topshiriqlarni belgilangan vaqtda bajarish o'quvchilarda intizom va mas'uliyatni oshiradi. Elektron portfoliolar esa o'quvchining shaxsiy rivojlanishini nazorat qilish imkonini beradi.

3. Interfaol metodlar

"Bumerang", "Aqliy hujum", "Debat", "Rol o'ynash" metodlari o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni o'z fikri va qaroriga javobgar bo'lishga o'rgatadi. Bu usullar mas'uliyatni ichki motivatsiya orqali rivojlantiradi.

4. Refleksiya va o'z-o'zini baholash

Dars yakunida refleksiya o'tkazish, kundalik yuritish va o'z faoliyatini baholash orqali o'quvchi o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qila boshlaydi.

5. Gamifikatsiya (o'yinlashtirish)

Ball, reyting, darajalar va rag'batlantirish orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarning topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishini kuchaytiradi. Bu usul ayniqsa kichik va o'rta yoshdagi o'quvchilar uchun samarali hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. O'quvchini darsning faol subyekti sifatida shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish va natija uchun javobgarlikni his qildirish orqali jamiyatga yetuk, mas'uliyatli shaxslar yetishib chiqadi.

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchitalabalarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini taqiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, ularni faoliyatga ongli ravishda yo'llash, biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o'quvchitalabalarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Hozirgi paytda darsning xilma xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni

to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim. Pedagogik innovatsiya bu pedagogik g'aoliyatdagi yangilik, o'qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashg'iyot), amaliy jihatlarida g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi tushuniladi. Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni harakatlar, usullar majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiyaning ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

O'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan ijobiy ishlashni talab etadi. Pedagog o'zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, ya'ni, nazariy va amaliy, o'quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Pedagog o'zidagi mavjud ma'lumot va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar hamda ilg'or o'qitish uslublarini ko'zlagan maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- o'quvchi-talabanning yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tishi, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tishi;
- o'rtacha o'quvchi-talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;
- o'quvchi-talabanning tashqi motivasiyasidan ichki ma'naviy tartibga o'tish.

Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga

oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqolini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ehtiros bo'ladi.

XULOSA

Darsning oldindan loyihasi, ya'ni texnologik xaritasi tuziladi. Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimni tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq", 1998
2. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma). - Qarshi: Nasaf, 2011.
3. Alimov N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta'limga tayyorlash. Maktabgacha ta'lim. - T., 2005.
4. Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish. Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi kitobi
5. Ziyo.net